

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. Тошент. 2019.

2. Берулова М. Н. Теория и практика интеграции общего и профессионального образования в профтехучилищах: дис. док. пед. наук. - Бийск, 1989. - 321 б.

3. Маҳкамов У. Ахлоқий маданият моҳияти. // Ж. Халқ таълими. 1997. №6.

4. Хурбоев Н.И. Научно-методические основы интегративного подхода к графической подготовке учащихся.: Автореф. дисс. канд. пед. наук. - Т.: 2000. - 22 с.

5. Зойиров К.А., Жонузақов А.Э. Талабаларда график маданиятни шакллантириш. / "Замонавий илм-фан ва технологияларнинг энг муҳим муаммолари" мавзусида Республика илмий анжуман (14.05.2004й) материаллари. - Жиззах, ЖизПИ. 2004. - 362- б.

О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA SUG‘URTA MUNOSABATLARINI RIVOJLANISH SAMARADORLIGI TAHLILI

Abdaturapova Dildora Farxodjon qizi
TDIU, 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi globallashuv jarayonida davlatning ijtimoiy himoyasining dolzarbligi, aholining tibbiy sug‘urtaga bo‘lgan ehtiyoji kun sayin ortib borishi, sug‘urta bozorining jahon talablariga mos va ilg‘or tajribalariga javob bera oladigan, to‘laqonli sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda tibbiy sug‘urtani naqadar dolzarbligi, uning bugungi kundagi muammolari yoritilgan. Maqolada ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug‘urtaning farqlari, e‘tiborli jihatlari, jahon hamda mamlakataimizda uning amaldagi holati keltirilgan.

Kalit so‘zlar

Murojaatnoma, YaIM, sug‘urta, sug‘urta madaniyati, sug‘urta turlari, tibbiy sug‘urta, COVID-19, ijtimoiy himoya.

Kirish

Yurtimizda aholi turmush darajasini barqarorlash hamda ularga sifatli xizmatlar ko‘rsatilishida sug‘urta tarmog‘ining o‘rni beqiyosdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni bilan reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, perinatal markazlarni zarur tibbiy texnika va buyumlar bilan jihozlash, ularni malakali kadrlar bilan ta‘minlash vazifasi belgilandi[1]. So‘nggi yillarda ijtimoiy himoyaning katta qismi bo‘lgan tibbiyotga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy himoyaga muxtoj, kam ta‘minlangan, boquvchisini yo‘qotgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi fikrimiz isbotidir. Ijtimoiy himoyani yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi

Farmoni bilan “2019 — 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”da Davlat tibbiy sug‘urta fondini tashkil etish ushbu tizimni rivoji uchun dastlabki qadam bo‘ldi. Jumladan, 2020-yil 12 –noyabr PQ-4890 sonli Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham prezidentimiz ushbu masala bo‘yicha “Aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘lamini kengaytirish, sohaga bosqichma-bosqich tibbiy sug‘urta tizimini joriy etish, tibbiy xizmatlar bozorida zamonaviy raqobat muhitini yaratish, shu asosda aholining kafolatlangan va sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish” ni alohida ta’kidlab o‘tib, uning ijrosini ta’minlash bo‘yicha 2021- yil 1-iyuldan 2022 yil yakuniga qadar Sirdaryo viloyatida davlat tibbiy sug‘urtasi tizimini tajriba-sinov tariqasida joriy qilish bo‘yicha topshiriq berildi. Hozirda ushbu konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi[1] ishlab chiqilib amalda qo‘llanilmoqda. Bugungi kunda ushbu amaliyot Sirdaryoning 3 ta shaxri va 8 ta tumani bo‘yicha amalga oshirilib kelinmoqda. Bugungi kunda ushbu pilot loyiha uchun jami 54 milliard so‘m ajratildi va loyihada qatnashish uchun jami 27 ta tibbiy muassasa bilan shartnoma tuzildi[3].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasining, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy saytida keltirilgan statistik ma’lumotlar, strukturaviy o‘zgarishlar tahlili, jahon hamda o‘zbek olimlari tomonidan nashr etilgan maqolalar va o‘quv qo‘llanmalarda keltirilgan ma’lumotlar o‘rganib chiqildi. Bundan tashqari, tibbiy sug‘urtaning jahon tajribasi hozirgi holati solishtirma tahlil qilindi. Tahlil natijalar asosida tegishli hulosalar va takliflar keltirib o‘tildi.

Asosiy qism.

Bugungi XXI asrda mamlakatlar o‘z ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini boshqarishning muhim tarkibiy qismi va ustuvor maqsadlaridan biri mamlakat fuqarolarini sifatli, samarali tarzda ijtimoiy himoya qilishdir. Fuqarolarning turmush darajasini yaxshilash, uning ijtimoiy tarafdin himoyalanganligi va sog‘lomligi bilan bog‘liq. Biroq, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida tibbiy xizmatlar tovar-pul munosabatlari asosida amalga oshiriladi. Shubhasiz, shifokorga murojaat qilganda, bemor shifokor xizmati uchun to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. BMTning 2021 yil uchun bergan ma’lumotlariga ko‘ra, “Dunyo aholisining atigi 46,9 foizi ijtimoiy himoya tizimida pulli xizmatlarning kamida bitta turi bilan ta’minlangan, qolgan 55 foizi (ya’ni 4,1 milliard kishiga yaqini) bundan to‘lov qobiliyatiga ega emas. Ayniqsa, COVID-19 Pandemiya davrida 211 mamlakat tomonidan 1900dan ziyod ijtimoiy himoya tadbirlari amalga oshirildi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlarning qariyb 39 foizi ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlariga nisbatan yo‘naltirilgan, 26 foizi esa daromad bilan bog‘liq xavfsizlik va ishsizlikdan himoya qilish maqsadida ko‘mak berilgan. Shunga qaramay, faqat 96 mamlakatda ishsizlikdan himoya qilish sxemalari mavjud,. Dunyo miqyosida, 2020 yilda ishchi kuchining atigi 43,1 foizi qonuniy ravishda ishsizlik nafaqasi puli bilan qoplangan va faqat Dunyo bo‘ylab ishsizlarning 18,6 foizi haqiqatda ishsizlik nafaqalarini olgan”[4]. Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, “2021-yilda dunyoda 930 milliondan ortiq aholi o‘z daromadlarining kamida 10 foizini tibbiy xizmatlarga sarflashadi[5]”

Tibbiy xizmatlarning iqtisodiy rivojlanish jarayonida bu kabi yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarga moliyalashtirishning turli mexanizmlarini ishlab chiqilgan bo'lsada, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida kam daromadli axoli salomatligini yaxshilashga imkonini bermadi.


Jumladan, 2019-yilda boshlangan pandemiya davrida bu kabi mavjud muammolarni yechish masadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Fransiyada COVID-19 testi va u aniqlangan taqdirda davolash milliy tibbiy sug'urta fondi hisobidan qoplangan. COVID-19 pandemiya davrida mamlakat byudjetidan 2 milliard yevro sarflangan.

Ispaniyada majburiy tibbiy sug'urta tizimi joriy qilingan bo'lib, mamlakat fuqarosiga COVID-19 uchun qilinadigan barcha xarajatlar qoplab berildi. Epidemiya davrida mamlakat sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 1 milliard yevro miqdorida pul mablag'alari tibbiy muassasalarga yo'naltirdi. Undan hususiy shifoxonalarga 557,4 million yevro miqdorida bemorlarning tibbiy harajatlarini qoplab berdi. Inqiroz kuchaygani sari barcha xususiy shifoxonalar va davolash markazlari vaqtincha ekspropriatsiya qilindi. Hozirda harqanday shifoxonada, hattoki xususiy bo'lsa ham koronavirusga chalingan bemorga bepul tibbiy xizmatlar amalga oshiriladi[6]. Umumiy qilib aytganda, Koronavirus kasalligiga chalingan bemorlarning 50-90 foizi tibbiy sug'urta mablag'lari hisobidan qoplandi. Biroq, bugungi kunda tibbiy sug'urta ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun hali tushuncha shakllanmagan. Bemor tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan va oddiy usullardan biri tibbiy xizmatlarga o'z yonidan to'lovni amalga oshirishdir. Asosan, bu naqd pul ko'rinishida amalga oshiriladi. Istse'sno tariqasida ayrim hayriya jamg'armalari ijtimoiy himoyaga muhtoj bemorlarga ko'mak sifatida o'ylab topilgan. Shuning uchun axolini ijtimoiy himoya qilish tizimida tibbiy sug'urtani o'rnini o'rganish, bozor iqtisodiyoti sharoitida tibbiy sug'urtani joriy etish va tibbiy xizmatlar bozorida xususiy sektorni barqaror sur'atlarda rivojlantirish, xorij tajribasini qo'llash bugungi kundagi dolzarb masala hisoblanadi.

Fuqarolarga tibbiy xizmatlar ko'rsatish hukumat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy himoya turlaridan biri hisoblanib, moliyaviy ta'minoti tibbiy sug'urta fondidan ajratiladi. "Tibbiy sug'urta sug'urtaning bir turi bo'lib, unda sug'urtalanuvchi sug'urta tashkiloti bilan kelishilgan ma'lum haq (sug'urta mukofoti) evaziga, tibbiy xizmatdan foydalanish bo'yicha xarajatlarning yuzaga kelish xavfini, sug'urtalanuvchi va sug'urta tashkiloti o'rtasida tuzilgan sug'urta shartnomasida kelishilgan summa va shartlar asosida sug'urta tashkilotiga o'tkazadi. Agar tibbiy sug'urta shartnomasi ixtiyoriy tarzda tuzilsa, u holda ixtiyoriy tibbiy sug'urta hisoblanadi. Tibbiy sug'urta shartnomasi qonun asosida majburiy tarzda tuziladigan bo'lsa, ya'ni fuqarolar qonunga binoan, tibbiy sug'urta shartnomasi tuzishga majbur bo'lsalar, u holda sug'urtaning bu turi majburiy tibbiy sug'urta hisoblanadi. Ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug'urta sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik asosida faoliyat olib borayotgan va tijorat tashkiloti hisoblanuvchi sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi[7]".


Izlanishimiz davomida shunga amin bo'ldikki, jahon sug'urta amaliyotida majburiy tibbiy sug'urtaning ayni bir qo'llash mumkin bo'lgan moedli mavjud emas. Har bir mamlakat o'z ijtimoiy himoya tizimidan kelib chiqib, majburiy tibbiy sug'urta tizimini yaratadi.

Moliya vazirligi huzuridagi sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan 2021-yil uchun bergan hisobot ma'lumotlariga ko'ra, yurtimizda 2022-yil 1-yanvar holatiga 34ta umumiy va 8ta hayot sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 2021-yilda jami 3,7 trln. so'm sug'urta mukofotlari jamg'arilgan (1-rasm).



1-rasm. 2021-yilda sug'urta turlari bo'yicha jamg'arilgan sug'urta mukofotlari hajmi, foizda[8].

Yuqoridagi ma'lumotlarni tahlil qilar ekanmiz, yurtimizda 2020-yilda jami 2,2 trln. so'm miqdorda sug'urta mukofotlari jamg'arilgan bo'lsa, uning 70 foizi ixtiyoriy va qolgan 15 foizlari majburiy va hayot sug'urta tarmoqlari ulushiga to'g'ri kelmoqda. 2021-yilda majburiy sug'urta bo'yicha jami 2.5 trln. so'm sug'urta mukofoti jamg'arilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 2 foiz past natija ko'rsatgan. Biroq hayot sug'urta tarmog'ida o'tgan yilga nisbatan 3 foizga o'sish kuzatildi. Umumiy sug'urta kompaniyasida 17 turdagi klasslar mavjud bo'lib, II klass- "Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish"dir. U "Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda"[9] kompaniya tomonidan mizojlarga taklif etiladi. Biroq, bugungi kunda sug'urtaning ushbu klasslari bo'yicha shartnomalar soni, sug'urta mukofotlari qoniqarli emas (2-rasm).



2-rasm. 2021-yil yakunlari bo'yicha ixtiyoriy tibbiy sug'urta shartnomalari va mukofotlari¹⁹

¹⁹ Muallif ishlanmasi

Moliya vazirligining 202-yil yakuni uchun bergan hisobotida[8] umumiy sug'urta tarmog'i bo'yicha tibbiy sug'urta 2020-yilda jami 22 324 dona shartnoma tuzilib, umumiy jamg'arilgan sug'urta mukofoti 31 467 mln. so'mni tashkil etdi. Tuzilgan shartnomalar soni o'tgan 2020-yilga nisbatan -10,9 foizga kam demakdir.

Hisob-kitoblarimizga ko'ra "Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish" jami sug'urta mukofotining 1 foizini tashkil etmoqda. Hayotni sug'urta qilish tarmog'i haqida gap ketar ekan, hozirda mamlakatimizda ushbu yo'nalish bo'yicha bor yo'g'i 8 ta kompaniya faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Tibbiy sug'urta bo'yicha kompaniyalar tomonidan 2021-yilda jami 700 mln. so'm miqdorida sug'urta mukofotlari yig'ilgan bo'lib, jami 90 dona shartnoma tuzilgan. O'tgan yilga nisbatan ijobiy natija ko'rsatgan.

Xulosa va takliflar

Kelgusi yillarda yurtimizda tibbiy sug'urta bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilar deb hisoblaymiz:

- So'nggi kunlarda majburiy tibbiy sug'urta bo'yicha amalga oshirilayotgan pilot loyihaning hamda amaldagi ixtiyoriy tibbiy sug'urtaning shaffofligi va ishonchliligini oshirish maqsadida ma'lumotlarning ochiqligini ta'minlash;
- Sug'urta kompaniyalarga qo'yiladigan talablarni oshirish va bu bo'yicha xorij tajribasini amalda qo'llash;
- Sug'urta bozori professional ishtirokchilari va boshqa bozor qatnashchilarini tibbiy sug'urta bo'yicha xizmatlar darajasini oshirish;
- "Tibbiy sug'urta" to'g'risida qonunni xorij tajribasi asosida ishlab chiqish;
- Sug'urta kompaniyalarini tibbiy sug'urta tarmog'i bo'yicha alohida reyting tuzish.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni <https://lex.uz/ru/pdfs/5980203> ;

2. 2020-yil 12 –noyabr PQ-4890 sonli Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-5100699#-5106061> ;

3. Всемирная организация здравоохранения. Европейский регион. Предварительная оценка реформы системы здравоохранения в Сырдарьинской области. 30.08.2022. <https://tibbiysugurta.uz>;

4. The Sustainable Development Goals Report. United nations. <https://unstats.un.org/The-Sustainable-Development-Goals-Report-2022.pdf>;

5. https://www.who.int/health-topics/universal-health-coverage#tab=tab_1 ;

6. <https://en.teyit.org/claims-about-treatment-of-covid-19-in-some-countries> ;

7. I.X. Abduraxmonov. Su'gurta nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma/ "Iqtisod-Moliya"-2018. 201-b;

8. <https://imda.uz/wp-content/uploads/2022/03/Yillik-korsatkich-2021.pdf>;

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-noyabrdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-342368>;